



MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING IJTIMOIY-SIYOSIY VA MADANIY QARASHLARI

O.A.G‘OFFAROV,

Stars iu 1-kurs talabasi.

M.N.RAHIMJANOV,

Stars iu dotsenti, phd;

<https://doi.org/10.47689/STARS.university-pp69-74>

Annotatsiya: *M.Behbudiyning siyosiy mazmundagi ishlari qatoriga “Qonuni Ovro‘po” nomli maqolasini ham kiritish joiz. Oddiy xalq uchun tushunarli, sodda va ravon tilda yozilgan ushbu maqola “Qonunlar har mamlakatning ahvoliga va siyosatig‘a muvofiq yozilur, xalq vakillari tarafidan tahrir topilib, mamlakatning podshosig‘a topshirilur”, - degan mulohazalar bilan boshlanib, Yevropa mamlakatlaridagi hukumat boshqaruvi tahlil etiladi. Ular uchta, ya‘ni monarxiya, parlament, respublika turlariga bo‘lib o‘rganiladi.*

Таянч иборалар: *ijtimoiy-siyosiy, hurfikrlik, ziyoli, milliy, mafkura, jamiyat taraqqiyoti, salbiy hamda ijobiy taraflar, madaniy, davr matbuoti, nazariy, fikr-mulohazalar, Turkiston, ziyolilar.*

Ma‘lumki, har qanday ijtimoiy-siyosiy tuzumdagi hurfikrlik imkoni, darajasi o‘sha davrning ilg‘or milliy ziyolilari qarashlari orqali namoyon bo‘ladi. Ularni sinchiklab o‘rganish va tahlil etish bilan o‘z davri hukmron mafkurasining ijtimoiy, siyosiy, ma‘naviy hayotga qay darajada ta‘sir etganligini, shuningdek, jamiyat taraqqiyotidagi salbiy hamda ijobiy taraflarni aniqlash imkoni kengayadi. XX asr boshlarida Turkiston milliy ziyolilarining fikr-mulohazalari xalq taraqqiyoti hamda dunyoqarashining kengayishiga xizmat qildi va ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-ma‘naviy hayotda muhim o‘rin egallay oldi. Ular nafaqat nazariy jihatdan fikr-mulohazalar bildirdilar, balki amalda ham o‘z sa‘yi harakatlarini ayamadilar. Shunday insonlardan biri Mahmudxo‘ja Behbudi edi.

Milliy taraqqiyparvar o‘sha davr matbuot sahifalarida Turkiston xalqlarining siyosiy, madaniy saviyasini oshirishga yo‘naltirilgan ijtimoiy-siyosiy maqolalari bilan faol ishtirok etdi. U o‘zi muharrirlik qilgan “Samarqand” gazetasining har bir sonida dunyoda sodir bo‘layotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga alohida urg‘u berib bordi. Jumladan, 1913 yil o‘rtalarida Bolqon mintaqasidagi siyosiy voqealar, xususan, Bolgariya, Turkiya, Ruminiya, Serbiya, Makedoniya, Gretsiya davlatlari orasidagi keskin munosabatlar natijasi o‘laroq boshlangan II Bolqon urushiga (Bu urush 1913 yil 29 iyunda bolgar qo‘shinlarining serb armiyasiga qarshi harbiy harakati bilan boshlangan. Serbiya, Gretsiya, Ruminiya, Turkiya koalitsiyasi Bolgariyaga qarshi urushgan. Bolgariya mag‘lubiyatga uchrab, 1913 yil 10 avgustda Buxarestda sulx

shartnomasi imzolangan edi. (Izoh: I Bolqon urushi 1912 yil oktabrda Turkiyaga qarshi Bolqon ittifoqi davlatlari (Serbiya, Bolgariya, Gretsiya, Chernogoriya) tomonidan boshlangan va unda Turkiya mag'lubiyatga uchragan edi.)) M.Behbudiy o'zining "Bolqonmu Vulqon?", "Adarna", "Bolqonga bir nazar" nomli maqolalarida xolis yondashuvini namoyon qiladi. Bu urushda nafaqat Bolqon mamlakatlari, balki Germaniya, Rossiya, Angliya, Avstro-Vengriya davlatlarining ham siyosiy manfaatlari hal etilayotgan edi. Garchi urush yakun topgan bo'lsa-da, "Bolqonning istiqboli hanuz mazlumdur. Oxiri qo'rqinchdir", - deb yozgan edi M.Behbudiy va uning ushbu fikrlari haqiqat ekanligini 1914 yilda boshlangan Birinchi jahon urushi tasdiqlaydi.

M.Behbudiyning siyosiy mazmundagi ishlari qatoriga "Qonuni Ovro'po" nomli maqolasini ham kiritish joiz. Oddiy xalq uchun tushunarli, sodda va ravon tilda yozilgan ushbu maqola "Qonunlar har mamlakatning ahvoliga va siyosatig'a muvofiq yozilur, xalq vakillari tarafidan tahrir topilib, mamlakatning podshosig'a topshirilur", - degan mulohazalar bilan boshlanib, Yevropa mamlakatlaridagi hukumat boshqaruvi tahlil etiladi. Ular uchta, ya'ni monarxiya, parlament, respublika turlariga bo'lib o'rganiladi.

Muallif Rossiya Davlat dumasiga saylanishi lozim bo'lgan turkistonlik munosib nomzodning yo'qligiga achinish hissi bilan qarar ekan, o'lka manfaatini himoya qiluvchi vakillar "Davlat dumasinda 400 nafar a'zo va 50 qadar hukumat rejali vazirlar huzurinda minbarg'a chiqib, o'zidan va millati, vatan mamlakati bobinda va ham sudlar, valiylar, vazirlar amal qilaturgan asl zakunni taqvich qilmoq va yo'yinki e'tiroz etmoq"lik xususiyatiga ega bo'lishi naqadar zarur ekanligini ta'kidlaydi. Buning uchun, eng avvalo, xalqning bolalarini maktablarda o'qitish masalasini birinchi o'ringa qo'yadi. "AQShda... kundalik gazetalarning soni 2472 ta, haftalik gazetalar 16269 ta, o'n besh kunlik va oylik jurnallar 276 ta chop etiladi. Bulardan 200 kundalik gazeta borki, bularning mushtariysi 10 milliyon kishidir, besh jurnal borki, besh milliyon mushtariyga ega. Eng kam o'qiladigon gazetaning mushtariysi 100000 kishidur", - deb yozilgan edi "Samarqand" gazetasining "Xorijiya xabarlar"i" ruknida. Tabiiyki, bu xabar gazeta muharriri M.Behbudiyning yuqori salohiyat sohibi, keng diapazonli dunyoqarashga ega shaxs ekanligini yana bir karra isbotlaydi. Ushbu holatga sharh berib, u o'z Vatandagi qoloqlikka shunday baho beradi: "yetmish million Amerika xalqi 22882 jarida va majalla o'qiydi, biz, Turkiston nufusi, onlardan sakkiz barobar oz bo'lsa-da, ilm borasida uch ming daf'a ozdurmiz. Biz dunyo ahdidan biz, turkistonlilar beilm va vahshiydurmiz".

O'z-o'zidan ko'rinadiki, aksariyat ijtimoiy-siyosiy rukndagi maqolalarning xulosasida M.Behbudiy Turkiston xalqlarining o'qitilishi va maorifiga e'tibor qaratilishi kerakligiga urg'u beradi. Millatparvar aholining ijtimoiy-siyosiy fikr doirasini kengaytirish, ushbu jarayonlarga jalb etishda, eng avvalo, xalqning dunyoqarashida madaniy-ma'rifiy o'zgartirishlar yasashning muhim omili sifatida maktab islohotini birinchi zaruriyat deb belgilab oldi.

"Oh, biz fandan keyin qolganmiz. Xalqi olam usuli jadid va ilmi zamonaviy ila osmonlarga uchar. Biz hanuz bir-birimizni takfir va tal'in ila vaqt o'tkararmiz", - deb yozgan edi Mahmudxo'ja Behbudiy. Taraqqiyparvar o'lkadagi madaniy-ma'rifiy jarayonlarni tahlil etishda boshqa millatlar maorifi va madaniyati darajalari holatiga e'tibor qaratgan va ulardan o'rnak olish zarur, deb hisoblagan. Masalan, Mahmudxo'ja Behbudiy: "...yahud, arman, rus bolalari oppoq kiyinib, qo'ltiq-qo'ltiq kitob ila maktablarga kelar ekan, bizni bolalarimiz na uchun kir va yirtiq kiyim, oyoq ya-

lang bir holda eshik ba-eshik mehnat axtarur, inson bu holatlarga diqqat ila boqsa istiqboldan ma'yus o'lur... bu holatimiz ila boshqa millatlarning maishat, savdo va tiriklik bobinda aslo-aslo barobar bo'lolmaymiz", deb qayg'uradi. Uning fikricha, "boshqa millatlarga qaralsa ko'rulurki, muntazam maktablari bor va ul maktabda diniy ilm ustinda dunyoviy ilm va fanlar ham o'qilur, chunki dunyoga turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur. Zamona ilm va fandan bebahra millat, boshqa millatlarga poymol bo'lur".

Bosh muharrir sifatida Mahmudxo'ja Behbudiy ko'p hollarda "Samarqand" gazetasi sahifalarida boshqa millat maorifining holatini sharhlovchi qiyosiy faktlarni xalqqa taqdim etishga harakat qilgan. Chunki aynan shu orqali Turkiston aholining ma'rifiy jihatdan ortda qolayotganligini yaqqol ko'rsatish imkoniyati mavjud edi. Masalan, 1913 yilda Kavkazdagi gimnaziyalarda 590, mavjud maktablarda 558, qizlar gimnaziyasida 154, qizlar maktabida 17, shahar bilim yurtlarida 1263, boshlang'ich rus va musulmon maktablarida 9569, hunar va sanoat maktablarida 191 musulmon farzandlari o'qiyotganligi, shuningdek, musulmonlarning o'ziga xos maxsus 1541 ta maktablari bo'lib, u yerda 1625 muallim dars berishi, 31533 shogird tahsil olishi ko'rsatilib, "Kavkazda 3 million musulmon bor. Turkistonda 8-9 million. Bu ikki mamlakat musulmonlarini bir-biriga qiyos qilinsa, darajalari ma'lum bo'lur", - deb ta'kidlasa, Rossiyada istiqomat qiluvchi 6 mln. 300 ming yahudiylar o'zlarining farzandlarini nafaqat milliy maktablarida, shuningdek, rus maktablarida ham tahsil olish imkoniyatlari kengligi ko'rsatilib, ular (yahudiylar - Ya.M)ning: "1904 yil hisobincha o'z din va tillarni o'qitmoqqa maxsus bo'lg'an maktablari o'n mingdan ziyodadir. Holbuki, o'shal yilda adadlari yahudiydardan to'rt marotaba ortiq bo'lgan maktablari 900 adoga yetmagan edi", deya o'zga millat vakillaridan ibrat olishga chaqirgan.

Umuman, M.Behbudiy o'z davrining ilg'or ziyolisi sifatida madaniyat masalasiga alohida e'tibor bergan. Buning misoli sifatida 1906 yilda nashr etilgan "Muntaxabi jug'rofiyai umumiy" (asarining to'liq nomi "Kitobi muntaxabi jug'rofiyai umumiy va namunai jug'rofiya". U 1905 yil 24 avgustda Sankt-Peterburg senzurasidan ruxsat olinib, 1906 yilda G.I.Demorov matbaasida chop etilgan. Behbudiy M. "Tanlangan asarlar". Toshkent, 1999. B.20-27.) asarini keltirish o'rinli. Asarda geografik va tarixiy ma'lumotlar bilan bir qatorda, juda sodda tarzda osmon jismlarining joylashuvi va harakati tushuntiriladi, astronomik jadvallar ilova tarzida beriladi. Shu bilan birga, muallif insoniyat va jamiyat hayotini tahlil qilib, vahshiylik, badaviylik va madaniylik bosqichlarini sanab o'tadi hamda mutamaddun, ya'ni madaniyatli jamiyat yaratish uchun ilm, hunar, din zarurligini uqtiradi, "Vahshoniyat jamiyatida, - deydi u, - shakllari inson va barcha harakatdagi it-ko'ppakdan badtardurki, insonlarni bidoyat holi yoinki ilmu adabsizlik martabasidir". Ikkinchi xil guruh "badaviylardurki, vahshoniyatdan taraqqiy yoinki madaniyatdan tanazzul"dir. "Bu toifani umrlari mol boqmoq, yemoq, yotmoq ila sarf bo'lub, jamiyati bashariyag'a keragicha yordamlari yetmaydur. Chunki ilmlari kamdur". Behbudiy uchinchi toifa kishilarni "madaniyat" tushunchasi ostiga olib, "madaniy" yoki "shahariy" deb ataydi va quyidagi ta'rifni beradi: "Bularni aksar ishlari tartib va tajriba, ilm va fan va qoida bo'yicha bo'ladur. Maktab, madrasa, masjid, mahkama, ruhoniylar, ibodatxona, amir, hukmron, podshohlari bordur". Behbudiy Yevropadagi mavjud idora usullari xususida fikr yuritib, ularni uchga, ya'ni:

1) idorai mustaqalla (idorai mutlaqa - monarxiya);

2) idorai mashruta (konstitutsiyali parlamentli hokimiyat);

3) idorai jumhuriyat (respublika) turlariga bo'ladi. Ularning har biriga alohida izoh bergan muallif bu davlatlarning aksar fuqarosi ahli ilm bo'lib, "ilmsiz hukumatlardek necha miliyon xalqni maishati, raftoi, ixtiyori bir nafar odam - podshohni ixtiyor yo royi va hukmig'a yo'qdur. Ushbu sabablardandurki, ozgina Ovro'po xalqi butun kurrai arzg'a hokim va mutasarrifdurlar. Sabab hukumat, ilm va davlat, qonuni musovot, mashvarat va tadbirdur", - degan xulosaga keladi.

Mahmudxo'ja Behbudiy ilm-fan taraqqiyoti bevosita madaniyatning eng muhim qismi ekanligini doim takrorlagan. Ayniqsa, tabiiy fanlar rivoji natijasida yevropaliklar qo'lga kiritgan yutuqlarni u o'quvchiga quyidagicha yetkazadi: "Hikmati tabiiya ilmni yaxshi tajriba ila o'qudilar. Oni uchun oylik yo'lni kunga, yillik xabarni daqiqag'a yurmoqqa, kelmoqg'a asbob tayyor qildilar.

Shul tariqa osmondagi nimarsalarni bilmoq uchun ajib asboblar tayyorladilar, ya'ni nazariyoti ilmiyani tajriba ila badihoti amaliyag'a solishturub amalg'a kirguzgonlaridan tilgirof, tilifo'n, tilgirofi havoyi, paraxo'd, temur yo'l, bolun, teles-ko'p, mikrisko'p kabila chiqardilar. Va ushbu asboblar sababi ila Yer yuzig'a butun g'alaba qildilar". Ko'rinib turganidek, M.Behbudiy o'z qarashlarida o'lkada o'ziga xos milliy rivojlanishni shakllantirish, bu vazifalarni amalga oshirishda Islom tushunchasini yangilash, uni mutaassiblikdan tozalash, fan yutuqlari va ilg'or texnologiyani egallash muammolarini yechish lozimligini ilgari surdi. U o'zining mashhur "Padarkush" dramasida ziyoli obrazi orqali xalqqa millatning yuzi bu - ilm va hunaridir degan g'oyani yetkazishga harakat qildi:

"Bu zamonga ilm va hunarsiz xalqning boyligi, yeri va asbobi kundan-kunga qo'ldan ketganidek, axdoq va obro'yi ham qo'ldan chiqar, hatto, dini ham zaif bo'lur. Buning uchun biz musulmonlarni o'qutmoqg'a sa'y qilmog'imiz lozimdur, vahlanki, dini sharifimiz har nav naflik ilm o'qumoqni beshikdan mozorigacha bizlarga farz qilgandur. Bu hukm - hukmi shariatdir". Behbudiyning fikricha, "Bu zamonda ikki sinf ulamo kerak, ya'ni olimi diniy va olimi zamoniy". Birinchi sinf: imom, xatib, mudarris, muallim, qozi, mufti bo'lib, xaloyiqni diniy va axloqiy ishlarini boshqaradi. Olimi zamoniy esa dini va millat tilini chuqur bilgan holda dorilfununlarda o'qib, mutaxassislar sifatida yuqori mansablarda Vatan manfaatini himoya qiluvchilardir, — degan mulohazalari bugungi kun uchun ham hamohang va dolzarb hisoblanadi.

Jamiyat rivoji va taraqqiyotida, jamiyat ongida tarix fani qanday o'rin tutishi kerak, degan muammoga M.Behbudiyning "Tarix va jug'rofiya" maqolasida munosabatni ko'rish mumkin. Ushbu tadqiqot jiddiy masalalarni ko'tarib chiqqan asarlardan biri sanaladi. Uning fikricha, xalqlar, mamlakatlar tarixi, Islom tarixini bilmay turib, oddiy musulmon fuqarosidan tortib to davlat arbobi, ruhoniy va ulamo, olim-u fuzalolargacha ma'rifatli bo'la olishi mumkin emas. Behbudiy o'z maqolasida:

"Dunyoga ishonmoq uchun va royatlik bo'lmoq uchun, komil va odil bo'lmoq uchun tarix o'qumoq va bilmoq kerak. Dinu dunyodan boxabar bo'lmoqni xohlaydurgon har kim uchun tarix o'qumoq kerak, chunki har nimasi va ishning asli va nasli tarixdan bilinur". Uning "Sart so'zi majhuldir" maqolasini professor D.Alimova: "O'z zamonasining ilmiy izlanishlariga tayangan holda, aholi fikrini bilishdan tortib manbalarni ham o'rganib, mavzuga oid qator adabiyotlarni tadqiq qilish natijasida yaratilgan ilmiy asar"¹, - deb baholagan edi. Shuningdek, M.Behbudiy qalamiga mansub bo'lgan "Mirzo Ulug'bek" nomli ilmiy maqolada allomaning davlat ishlari

1 Ayaimova D.A., Rashidova D.A. Mahmudxo'ja Behbudiy va uning tarixiy tafakkuri Toshkent, 1999. B.17.

bilan bir qatorda astronomiya fani sohasida olib borgan ilmiy ishlari, tadqiqotlari haqida qimmatli fikrlar bayon qilindi. Ulug‘bek Sharqning yirik olimi sifatida e‘tirof etilib, “Ziji Ko‘ragoniy” jadvalini tuzganligi va bu jadvalning hozirgacha o‘z qimmatini yo‘qotmaganligi ta‘kidlanadi¹. Umuman, barcha ilg‘or milliy ziyolilar kabi Mahmudxo‘ja Behbudiy ham jamiyat madaniy taraqqiyotining muhim omili sifatida Vatan tarixi muammosi va uni o‘rganishni birinchi o‘ringa qo‘ydi.

Taraqqiyparvar milliy madaniyat rivojida tubdan o‘zgarishi lozim bo‘lgan jihatlardan biri sifatida, eng avvalo, maishiy turmush tarzidagi islohotlarni zarur deb bildi. Xususan, uning “Bizni kemirguvchi illatlar”, “Ehtiyoji millat”, “Millatlar qanday taraqqiy etarlar?”, “A‘molimiz yoyinki murodimiz” kabi maqolalarida o‘sha davrda maishiy hayotdagi mavjud kamchiliklar qattiq tanqid ostiga olindi. M.Behbudiy: “Qo‘ldaki bor nimarsamizni to‘yu azog‘a, behuda odatlarg‘a sarf etarmiz. Ko‘rpamizga qarab oyog‘ uzatmaymiz. Qarz ila imorat, to‘y, fisqu boylik qilarmiz, isrof qilarmiz. Oxiri “xusrud dunyo va oxira” bo‘lurmiz. Bu sabab ila faqirlik darajasiga tushurmiz. Bir karra diqqat qilinsun. Bir yahudiy, bir o‘rus, bir armani hech vaqt to‘y degan baloga besh ming so‘m, hatto bir-ikki ming so‘m sarf qilingani eshitilmaydur. Biz bo‘lsa yigirma ming so‘mlab sarf etarmiz”² yoki “Har kuni sudda naqadar hovli, xona, bog‘ sotilur. Bu nimaning jazosi? To‘y, ma‘raka, ta‘ziya, ko‘pkari, bazm. Bir mahallada ahdi savod yigirmadan bir yo‘q. Imoni islomni dalillari ila bilaturg‘onlarni nari qo‘yduk. Erta qozilar barham bo‘lsa, zamoncha qozi bo‘laturg‘on birgina kishi o‘n milyo‘n Turkistonda yo‘q..... to‘y va ma‘raka qilinsun. Ammo hozirgidek isrof etmasdan qilinsun. Va mumkin qadarincha kichik qilinsun. Va ortiqcha pul ila bolalarni musulmon va rusiy yaxshi o‘qitulsun. To‘yu ma‘rakag‘a sarf qilinaturg‘on oqchani eski madrasa va mozoru masjid hamda maktablarni shikast rextlarig‘a sarf qilinsun. ...Aqchalik otalar, albatta, to‘y va ma‘rakaga qizg‘onmaganlaridek, bolani o‘qutishg‘a ham qizg‘onmasalar kerakdur. Bolalar uchun tarbiyatxona (pansiyon) ochmoq kerak, Va bu tarbiyatxonalar zamoncha va ham milliy va diniy ruhtsa bo‘lishi kerakdir”³, - degan fikrda edi. U: “Ma‘lum bir shaharda yahudiylar ba‘zan o‘luklarini oqshom eltib ko‘marlar. Na uchun? Kunduzi ishdan qolarlar. Biz bo‘lsa, o‘luk va to‘y uchun haftalar, hatto oylar ila ishdan qolurmiz”⁴, - deydi va bu odatlarning xatoligini Qur‘on va Hadislar orqali isbotlab beradi. Eng achinarlisi, xalqning bu urf - odatlarni bajarish yo‘lida qarzga botishi va yillab bu og‘ir yukdan xalos bo‘la olmasligi edi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘z davrining ilg‘or kishisi sifatida ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotdagi yechilishi lozim bo‘lgan muammo va kamchiliklarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rdi, jamiyat tanazzulini his etdi. U o‘z fikr-mulohazalarini xalqqa tanqidiy, xalqchil ruhda yetkazishga harakat qildi, bartaraf etish yo‘llarini izladi. Taraqqiyparvar boshqa xalqlar bilan ijtimoiy munosabatlarga kirmay turib, jahon madaniyatiga, milliy taraqqiyotga erishib bo‘lmasligini, o‘zga millatlar turmush tarzining ibratli jihatlaridan foydalanish zarurligini to‘g‘ri anglab yetdi. Shuningdek, uning qarashlarida taraqqiyotning moddiy asosini mustahkamlash, ya‘ni, eng avvalo, iqtisodiy madaniyatni yaratishga asosiy e‘tiborni qaratgan holda ma‘naviy zaminni mustahkamlash masalasi bosh o‘ringa olib chiqildi.

¹ Behbudiy M. Mirzo Ulugbek // Samarqand, 1913. № 38. 23 avgust.

² Mahmudxo‘ja. Oh, bonklar biznk barbodedti! // Oyina, 1914. № 19.

³ Behbudiy M. A‘molimiz yoinki murodimiz // Oyina. 1913. №7.

⁴ Behbudiy M. Bizni kemirguvchi illatlar // Oyina 1915. N»13.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev. Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: O'zbekiston, 2016.
2. Mirziyoyev. Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T.: O'zbekiston, 2017.
3. Mirziyoyev. Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T.: O'zbekiston, 2017
4. Mirziyoyev. Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: O'zbekiston, 2017
5. Mirziyoyev. Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. T.: O'zbekiston, 2017
6. Abdurashidxonov Munavvar qori. Tanlangan asarlar.-T: Ma'naviyat, 2003.
7. Abdurauf Fitrat- Tanlangan asarlar.B. Qosimov,-T., Ma'naviyat, 2003
8. A.Avloniy - Tanlangan asarlar. B.Qosimov, -T., Ma'naviyat, 2006. 1-Jild.
9. A.Avloniy - Tanlangan asarlar. B.Qosimov, -T., Ma'naviyat, 2006. 2-Jild.
10. M.Behbudiy - Tanlangan asarlar. B.Qosimov, -T., Ma'naviyat, 2006.
11. Is'hoqxonto'ra Ibrat. Tanlangan asarlar.B.Qosimov, -T., Ma'naviyat, 2005.
12. Qosimov Begali. Milliy uyg'onish .- T: Ma'naviyat. 2002.
13. Ayaimova D.A., Rashidova D.A. Mahmudxo'ja Behbudiy va uning tarixiy tafakkuri Toshkent, 1999. B.17.
14. Behbudiy M. Mirzo Ulugbek // Samarqand, 1913. № 38. 23 avgust.
15. Mahmudxo'ja. Oh, bonklar biznk barbodetdi! // Oyina, 1914. № 19.
16. Behbudiy M. A'molimiz yoinki murodimiz // Oyina. 1913. №7.
17. Behbudiy M. Bizni kemirguvchi illatlar // Oyina 1915. N»13.